

## AXBOROTLASHGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR – TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SAMARALI VOSITASI

*Ulashev Asrorjon Nasriddinovich*

*O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali o'qituvchisi.*

*OrCid raqami: 0000-0001-6049-8267*

*[ulashevasror8@gmail.com](mailto:ulashevasror8@gmail.com)*

### ANNOTATSIYA

Tadqiqotchilar, foydali axborotlarni olish, o'rganish, va ularga murojaat qilish jarayonlarini o'rganish orqali ta'lismi jarayonini samarali vaqtning o'zlashtirilishi uchun kerakli pedagogik texnologiyalarni aniqlab chiqishganlar. Maqola, axborotlarni qo'llashning samaradorligini oshirishning muhim vositalarini ta'riflaydi va ularni amaliyotda qo'llash jarayonini ta'lismi olishdagi samaradorlikni oshirishga qaratilgan texnologiyalar bilan birlashtiradi. Bu maqola, ta'lismi sohasidagi rivojlanishni dastlabki o'rinni o'rganish uchun qiziqarli ma'lumotlar taklif etadi.

**Kalit so'zlar:** *Texnik, fikr, bilim, ko'nikma, shakl, motivatsiya, metod, didaktik, material.*

XXI asr – yangi axborot texnologiyalari asri. Ushbu davrda axborot texnologiyalariga oid bilimlarga ega bo'lmay turib, zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirib bo'lmaydi. O'quvchilarda hayotiy zarur bo'lgan XXI asr bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishlari ularni keyingi hayotga tayyorligining bosh me'zoni hisoblanadi. Ushbu sharoitda zamonaviy ta'limga maqsad va vazifalari ham o'zgarib boryapti, an'anaviy ta'lismi yondashuvidan XXI asr ta'lismi yondashuviga, ya'ni shaxsga yo'naltirilgan ta'limga o'tilmoqda. Bunday ta'lismi yondashuvining asosida o'quvchi shaxsining to'la rivojlanishi, tez o'zgaruvchan hayotga har taraflama tayyor bo'lishi, ularning mustaqil ravishda bilim olish ko'nikmalarini, ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ulkan axborot makonida axborotlarni tanqidiy nuqtai nazaridan to'g'ri izlash, tanlab olishni, oldida turgan mauammolarni nafaqat ko'ra bilish, balki ularni ifodalash va hal eta olish yotadi.

Axborot texnologiyalari, kompyuter va kompyuter dasturlari insonlar bajaradigan ishlarni engillashtirish, samarali faoliyat yuritish va bilimlarga ega bo'lish uchun yaratiladi, yangi imkoniyatlar ochadi va bizdan yangi bilim va ko'nikmaga ega bo'lishimizni talab etadi. Shu o'rinda Kreyg Barretning so'zlarini keltirish o'rinli bo'ladi: "Mo'jizani kompyuterlar emas, balki o'qituvchilar yaratadi". Ya'ni, axborot texnologiyalari vositalari ta'lismi sifatini oshirishga xizmat qilishi, bu jarayonda ular faqatgina bilimlarni yig'ish vositasi sifatida qatnashishi nazarda tutiladi.

Axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish o‘quvchilardan bir qator ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlikni talab etadi: didaktik materiallarni va faoliyatiga oid hujjatlarni tayyorlashda matn muharriridan samarali foydalanish, multimedia taqdimotlarini tayyorlash, tarmoq ichida ma’lumotlarni izlash va muloqot qilish. Ushbu vazifalarni bajarishda o‘quvchilardan kompyuter savodxonligiga ega bo‘lishlik talab etiladi. Bugungi kunda kompyuter savodxonligi keng qamrovli tushuncha bo‘lib, o‘z ichiga juda ham ko‘plab ko‘nikmalarni oladi. Shular ichidan o‘quvchilar tomonidan kompyuter savodxonligiga ega bo‘lishlikning eng kerakli va zarur bo‘lgan tayanch qismini ajratib olish muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ta’lim-tarbiya sohasining yaxlit, uzlusiz tizimini shakllantirish va mustahkamlash, jumladan, umumiyo‘rta ta’limdan boshlab o‘rta maxsus, kasb-hunar hamda oliv ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda yuksak bilimli va malakali kasb tayyorgarligiga ega bo‘lgan avlodni tarbiyalash jarayonini takomillashtirish ishlari izchil davom ettirilayotganligiga alohida to‘xtalib o‘tdi.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g’risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta’limda islohotlarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Axborotlashgan pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda informatika tarbiyani mustahkamlash va bu jarayon axborot ta’minotini zamon o‘quvchilariga javob bera oladigan ko‘rinishga keltirish, kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanmoqda.

Axborotlashgan pedagogik texnologiyalarni vujudga kelishi, bu jamiyat rivojlanishi va o‘quvchilar o‘zgarishining natijasidir. Har bir yangi davr o‘zgarishlarini va yangiliklarini taqozo etadi. Yangi axborotlashgan pedagogik texnologiyalarning maqsadi har yangi bosqichda asosan ta’lim va tarbiya samarasini oshirishga qaratilgandir. Ta’lim-tarbiya jarayoni samarasini oshirish yangi sifat darajasiga o‘tish imkonini beradi. Bu maqsadga erishish uchun esa axborotlashgan pedagogik texnologiyalarni, ya’ni o‘qish jarayonining borishi va tashkil qilishni yangi samarali ko‘rinishlarini ishlab chiqish lozim. Ushbu axborotlashgan pedagogik texnologiyalar hozirgi davr uchun, ya’ni insonning rivojlanish darajasi va texnikanining rivojlanish darajasiga mos tushishi hamda inson va texnik resurslarni uyg`un birlashishini ta’minlashi kerak.

Yangicha yondashuv, yangicha fikrlesh asosida o‘qitish jarayonida bilim oluvchilarning o‘quv-bilim faoliyatining samarali shakl va uslublarini joriy etish, ularning mustaqil ishlarini samarali tashkil qilish kerak. O‘quv-tarbiya jarayonini lmiy va metodik jixatdan mukammal tashkil etish muvaffaqiyatlar garovidir.

Bunda barcha turdagи mashg’ulotlar va mustaqil topshiriqlar o‘quvchilarni o‘ylashga, ijodiy mehnat qilishga, har tomonlama fikr yuritishga, berilgan topshiriqlarni o‘z hayotiy tajribalariga asoslanib hal etishga o‘rgatadi.

O‘quv faoliyatida pedagogik texnologiyalarni, jumladan innovatsion usullarni joriy etish orqali quyidagilarga erishildi:

- O`quvchilarning topshiriqlarni oldindan bajarishlariga imkon yaratildi;
- O`quvchilarda motivatsiyalarning yuqori bo‘lishi ta’minlandi;
- O‘tilgan materiallarni esda saqlab qolish darajasi ortdi, muloqotga kirish ko‘nikmasi shakllandi;
- O`quvchilarda mustaqil ishslash qobiliyati va qarorlar qabul qilish san’ati rivojlandi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya o‘zining pedagogika va boshqa fan yutuqlari bilan bog’liq xususiy nazariyasiga ega;

U birinchi galda o‘quv-tarbiyaviy jarayonini ilmiy loyihalashtirishga yo‘naltirilgan, o‘qitishning axborotli vositalaridan va didaktik materiallaridan, faol metodlaridan keng foydalanishga asoslangan o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatiga zamin yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. I.A.Karimov. “Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili”. T.: «O‘zbekiston», 1995 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g’risida”gi Qonuni. “Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi”. T.: «SHarq», 1997 yil.
3. N.Azizzxo‘jaeva. “Zamonaviy ta’lim texnologiyalar va pedagogik mahorat”. T.: TDPU, 2004 yil.
4. R.Ishmuxamedov. “Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari”. T.: TDPU, 2005 yil.
5. R.Ishmuxamedov. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar”. T.: “Iste’dod”, 2008 yil.
6. Tojiyev, A., Ulashev, A., & Abdualimov, B. (2023, May). WINDOWS FORM ILOVASIDA MATEMATIK FUNKSIYALAR GRAFIGINI YASASH. In *International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming*.
7. Nasriddinovich U. A. et al. C# DA WEB KAMERA ORQALI QR KOD YASASH VA O ‘QISH TEXNOLOGIYASI //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – T. 2. – №. 4. – С. 30-34.
8. Ulashev, Asrorjon, and Alisher Tojiyev. "METHODS FOR PREPARING GEOMETRIC OBJECTS USING FLASH SOFTWARE." *International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming*. 2023.
9. Жомуродов, Дустмурод, and Асрор Улашев. "Дополненная реальность в робототехнике: объединение миров ради будущего." *Информатика и инженерные технологии* 1.1 (2023): 49-52.